

## **EVFEMIK VA DISFEMIK BIRLIKLARNI O‘GIRISHDA TRANSFORMATSION-SEMANTIK MODEL DAN FOYDALANISH**

**Kadirova Xurshida Batirovna**

Folologiya fanlari nomzodi, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adbiyoti universiteti

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada evfemik va disfemik birliklarning badiiy tarjimadagi muammolariga bag‘ishlangan. Bunda transformatsion-semantik modelning ahamiyati xususida so‘z boradi. Biroq bu modeldagi ayrim tarjima usullari evfemik va disfemik birliklarni tarjima qilish uchun imkoniyati tor ekanligi xulosa qilinadi. Tadqiqot maqsadi mazkur usullarni evfemik va disfemik birliklarni tarjima tilida yetkazish muammo ekanligini tadqiq qilish, transformatsion-semantik modelning imkoniyatlarini asoslash hisoblanadi. Tadqiqot obyekti evfemik va disfemik birliklar bo‘lib, premeti badiiy tarjima hisoblanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Evfemik, disfemik birlik, semantic model, badiiy tarjima, tilshunoslik.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматриваются проблемы эвфемистических и дисфемистических единиц в художественном переводе. Речь идет о важности трансформационно-смысловой модели. Однако делается вывод, что некоторые методы перевода в этой модели ограничены в своих возможностях перевода эвфемистических и дисфемистических единиц. Цель исследования - изучить проблему данных способов передачи эвфемистических и дисфемистических единиц в языке перевода, обосновать возможности трансформационно-семантической модели. Объектом исследования являются эвфемистические и дисфемистические единицы, а предметом – художественный перевод.*

**Ключевые слова:** *эвфемизм, дисфемизм, семантическая модель, художественный перевод, лингвистика.*

### **ABSTRACT**

*The article discusses the problems of euphemistic and dysphemistic units in literary translation. We are talking about the importance of the transformational semantic model. However, it is concluded that some translation methods in this model are limited in their ability to translate euphemistic and dysphemistic units. The purpose of the study is to study the problem of these methods of transmitting*

*euphemistic and dysphemistic units in the target language, to substantiate the possibilities of the transformational semantic model. The object of the study is euphemistic and dysphemistic units, and the subject is literary translation.*

**Key words:** *Euphemism, dysphemism, semantic model, artistic translation, linguistics.*

## **KIRISH**

Tilshunoslikda milliy madaniyat elementlarining o'ziga xos ravishda tilga ko'chishini o'rganuvchi lingvokulturologiya yo'nalishining mavqei bugungi kunda oshib borayotganligini yuzaga kelayotgan ilmiy tadqiqotlardan ko'rishimiz mumkin. Har bir xalq milliy-mental xususiyatlarga ega bo'lib, madaniy muhit, hayot tarzi tilda aks etishi bilan xususiy til paydo bo'lar ekan, bu yo'nalish tillararo globallashuv davrida o'rganilishga, har tomonlama tadqiq etilishga ehtiyoj sezadi. Milliylikni o'zida mujassam etgan nutqiy – evfemik va disfemik birliklar esa o'zga til vakili tomonidan to'g'ri idrok etilishi uchun bir meyor talab etadi. Ammo nutqiy vaziyatda har gal yangi tus olivchi o'ynoqi bu ko'chimlar meyordan yiroq, uni bir qolipga solish muammo, lug'atini yaratish esa dunyo tilshunosligida ko'pdan beri muammo bo'lib kelayotgan masaladir. Zero, evfemizm va disfemizm o'z qo'lami bilan lug'atga sig'may uni faqat tarjimonning qo'llagan to'g'ri usuli bilangina o'zga tilda yetkazilishi, asliyatdan uzoqlashmagan holda tarjima tilida istifoda etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullar tarjimashunoslikda meyorlashtirilgan, modellashtirilganligi tilmochga yengillik yaratadi. Biroq tarjimaning muvaffaqiyat qozonishi bu modellardan samarali foydalanish bilan cheklanadimi, tutqich bermas evfemizm va disfemizmlar uchun ular asqatadimi, yoki qayd etilgan ko'chimlar uchun alohida model yaratish zarurmikan degan masalalar ochiq qoladi. Shunday bo'lsada, mavjud imkoniyatlar bilan badiiy tarjimaning umumfilologik va lingvistik qoidalariga zid kelmagan holda lingvokulturologik aspektlarni to'laroq ochishga, ayniqsa mental tasavvurga putur yetkazmasdan evfemik va disfemik birliklarni madaniyat unsurlarini tashishga xizmat qildirishga urinish katta mahorat talab etadi. Bu esa tilshunoslik hamda tarjimashunoslikning birday dolzarb masalalaridandir.

Tarjimashunoslikda transformatsion-semantik model bo'lib, u tarjimada asliyat birliklarining ma'nosini jumlagi asoslangan holda yetkazish uchun qo'laniladi. Bu model tarjima jarayonida bir qator transformatsiya<sup>1</sup>larni o'zda mujassamlashtirib, ular yordamida tarjimon manba tili birliklarini tarjima tili birliklariga o'giradi va o'zaro ekvivalentlik yaratadi. Aslini olganda transformatsion-semantik model asliyat va tarjimaning til qonuniyatlari va leksik birliklari o'rtasida aloqa o'rnatadi.

<sup>1</sup> лат. transformatio — қайта ўзгариш, қайта ҳосил бўлиш.

Munosabatga kirishgan birliklar tarjima jarayonining boshlang‘ich va yakuniy holati sifatida qaraladi.

Bu transformatsiya 3 bosqichda kechadi: tahlil, boshqacha ifodalash, strukturani o‘zgartirish. *Birinchi* – **tahlil bosqichida** – tarjima tili doirasida asl sintaktik tuzilmalarni soddalashtiruvchi transformatsiya amalga oshiriladi, ya’ni asl nusxaning tuzilmalari soddaroq, oson tahlil qilinadigan shakllarga o‘zgartiriladi (moslashtiriladi). Taxmin qilinishicha, turli tillardagi shunday oddiy “yadro” (yoki «yadroga yaqin») tuzilmalar o‘ta yaqin va tarjima jarayonida bir-birini osonlikcha almashtira oladi. Xususan, *She is a good danse* (U yaxshi raqqosa) degan jumla yanada «shaffof» *She dances well* (U yaxshi raqsga tushadi) tuzilishga aylanadi. *The thought worried him* (bu xayol uni tashvishlantirdi) gapi ikkita soddalashtirilgan jumla shakliga kelganini va uzviylikni ko‘rish mumkin: *he thought, he worried* birinchi jumla (u o‘ylaydi) ikkinchisi (u tashvishlanadi)ni taqozo qiladi. Evfemik va disfemik birliklarni tarjima tiliga o‘girishda bunday transformatsiya turli ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, “O‘tkan kunlar” asarining tarjimasida *O‘zbek oyim og‘ma, Zaynabning dardi* jumlasini ikkita soddalashtirilgan jumla shaklida beriladi va ular orasidagi bog‘liqlikni, haqiqatdan ham, ko‘rish mumkin: *Узбек-аим переметнулась к маргиланке. Тоска Зайнаб.*<sup>2</sup> Birinchi jumla ikkinchisini taqozo qildi. Bunda disfemik xoslanish sifat so‘z turkumi (*og‘ma*)dan fe‘l so‘z turkumi (*переметнулась*)ga almashinuvi – transformatsiyasi sodir bo‘lgan. Mazkur jumladagi qo‘shilma (*к маргиланке*) esa ikkinchi transformatsiyani vujudga keltiradi, ya’ni jumlaning strukturasi ta’sir etadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shuni aytib o‘tish kerakki, o‘zbek tilining struktur imkoniyati keng bo‘lib, bu tilning salohiyati, aglyutinativligi, polisemantik xususiyatidan darak beradi. Va u yuqoridagi misol kabi tarjima tilida kengayishini taqozo qiladi:

– *Iymanma, Kumush otin, bu kun-  
erta bizga kelinsan, uchunchi kundan  
boshlab sen mug‘ombirning  
boshingda tegirmon yurgizishni o‘zim  
yaxshi bilaman!* – dedi.

– *Ну смущайся, Кумуш-атын.  
Сегодня-завтра ты наша гостья,  
новая невестка. А дня через три я у  
тебя, хитрюги, на голове жернова  
буду вертеть.*

Tarjimaning **tahlil qilish** bosqichida ma’nosida elementar tushunchalar (semalar)ni bo‘lgan alohida so‘zlar ham soddalashtirilgan transformatsiyalarga

<sup>2</sup> Кадыри А. Минувшие дни. – Т.: изд-во «Шарк», 2009. – 430 с.

uchraydi. Tushunchalarning bunday elementlari semantik ma’nosi yaqin soʻzlar bilan muqoyasa qilish va ularni farqlash jarayonida ajralib turadi. Bunday semantik qator aʼzolarida tushunchaning umumiy elementlarini topish mumkin boʻlganidek, differentsial, sinonimik qatordagi boshqa aʼzolaridan farqli maʼnolarini ham topish mumkin. Masalan, *kelin*, *kelinchak*, *yangi kelin*, *oiladagi yangi odam*, *hozircha mehmon mehmon* soʻzlari qatorida umumiy (yadroviy) maʼno komponenti “bir xonadonga boshqa xonadondan yangi oila aʼzosi boʻlib kelgan odam” boʻladi. Ular orasida *kelin* – *невестка* maʼnosi bu yadroviy tushunchadan tashqari yana ikkita qoʻshimcha differentsial “yangi odam” *mehmon* va “yana bir oila aʼzosi”, “hozircha mehmon, keyinchalik kelin, yaʼni qiz, bir oila aʼzosining mahrami, bolalarning onasi, nabiralarning onasi” belgilarini oʻz ichiga oladi. Shu maʼnoda tarjima tilida oʻz soyasida “yangi odam”, “mehmon” semalarini oʻzida yashirayotgan evfemik ifoda (*kelin*) ochiq, yaʼni neytral ifoda (*гостья, новая невестка*) bilan almashadi. Bunda tarjima meyorlariga xos modeldan foydalanib muayyan natijaga erishilganiga shubhaga yoʻq, ammo koʻchim oʻz ohorini toʻkib, quruqlashganini koʻrishimiz mumkin.

Oddiy, nominativ, neytral leksikani tarjima qilishda koʻp imkoniyatlar mavjud. Masalan, ruscha *студент* (talaba) soʻzining komponent tahlilida erkak (*студентка* emas), *учащийся в ВУЗе* (ученик emas), *обучаемый* (*преподаватель* emas), *единственное число* (*студенты* emas) kabi semantik xususiyatlar aniqlanadi. Oʻzbek tili “*talaba*”sida dastlabki ikki semalari yoʻqoladi, qolgan ikkitasi esa bir xil boʻladi. Aynan bir xillik, garchi ayrim semalarda boʻlsa ham turli tillardagi soʻzlarning bir-biriga nisbatan ekvivalent sifatida oʻrnini bosishga imkon beradi. Koʻchimlarda ekvivalent tanlash esa, millat ruhiga, dunyoqarashiga singib ketgan birlikni transformatsiya qilish muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Spunda tahlil bosqichida amalga oshirilgan sintaktik tuzilmalarni soddalashtirish va leksik birliklarning maʼnolarini ajratish bir chetga surilib, tarjimaning *ikkinchi bosqichi* – «**boshqacha ifodalash**»ga imkon beradi. Bunda jarayon tarjima tilining yadroviy strukturasi va semantik komponentlariga oʻtadi.

Turli tillardagi bunday strukturalarda elementar semalar darajasida ham sezilarli oʻxshashliklar kuzatiladi. Shuning uchun, umuman olganda, ekvivalent birliklarni ushbu darajada topish nisbatan oson. Ayon boʻladiki, agar *She is a good singer* (U yaxshi qoʻshiqchi) jumlasini tarjimada muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarsa, agar bu fikr professional xonandaga taalluqli boʻlmasa, unda fikrning transformatsion shakli *She sings well* (U yaxshi kuylaydi) mos kelishi mumkin. Evfemik va disfemik vaziyatlarda ham bu transformatsiyalar uchun maydon keng. Lekin manbaa tilidan tarjima tiliga oʻtish jarayonida koʻchimlarning semantik qiymatida oʻzgarish sodir

bo‘ladi:

– Вероятно, это вам очень наскучало, – сказал он, сейчас, **на лему, похватывая этот мяч кокетства**, который она бросила ему.<sup>3</sup> → *Vronskiy o‘ziga Anna Arkadyevna irg‘itgan noz-ishva koptogini darhol yerga tushirmay ilib oldi-yu:* – *Bo‘lmasa, oyim juda zeriktiribdilar-da sizni, – dedi.*<sup>4</sup>

Bu yerda *на лему* birligi *yerga tushirmay* birligi bilan o‘girilib, tarjimon manba tili madaniy nutqiga xos bo‘lgan neytral ma‘noni to‘ppa-to‘g‘ri yetkazishga xizmat qilidirgan. Biroq u tarjima tilida meyor bo‘lmagan ma‘noni yuzaga keltirgan. Ya‘ni *на лему, похватывая этот мяч кокетства* – rus madaniyati va psixologiyasi uchun meyor, tarjima tili, ya‘ni o‘zbek madaniyati uchun axloqsizlik hisoblangan birlik (*noz-ishva*) orqali disfemik kayfiyat uyg‘otgan: *noz-ishva koptogini darhol yerga tushirmay ilib oldi*. Shu o‘rinda, tarjimaning transformatsion-semantik modelining “boshqacha ifodalash” bosqichidan samarali foydalanilmaganligini aytib o‘tish joiz. Zero, nominativ birliklar (*на лему – yerga tushirmay*)dan u o‘rinli foydalanilib, konnotativ, kognitiv, lingvokulturologik, psixolingvistik birlik (*кокетство – noz ishva*) ekvivalentini tanlashda biroz xatolikka yo‘l qo‘ygan.

Qiyos qiling:



<sup>3</sup> Толстой Л. Анна Каренина. «Эксмо», 1878 — (Библиотека всемирной литературы). С. 64. – 165 с.

<sup>4</sup> Толстой Л. Анна Каренина (Мирзакалон Исмоилий таржимаси). – Тошкент, Гофур Гулом. 1980. – Б. 82



*Кокетство* soʻziga ekvivalent sifatida birinchi ifoda yumshoq, ikkinchi va uchinchi ifoda dagʻalikka qarab ketuvchi graduonimik ketma-ketlikda joylashadi. Tarjimada qoʻllanilgan *noz-ishva* birligining ekvivalentlari dagʻallikdan yumshoqlikka qarab tartiblanadi. Bu esa leksemaning disfemiklik xususiyatini koʻrsatadi. Shunday boʻlsada, uning dastlabki qoʻpol ekvivalenti (*жеманство*)ning birgina, u ham boʻlsa birinchi semasining muayyan miqdorda mayinligini koʻrishimiz mumkin. Shu maʼnoda, *кокетство* leksemasi manba tilida mental oʻrni, madaniy axloqsizlik belgisi emasligini hisobga olgan holda, tarjima tilida ham jumlagi evfemik toʻn kiydirish, bu birlikning ekvivalenti sifatida *tannozlik* birligini qoʻllash oʻrinli deyish mumkin.

*Uchinchi bosqich* – «**restrukturizatsiya**»<sup>5</sup> da – asl nusxaning yadroviy (“yadroga yaqin”) tuzilmalari va birliklari tarjima tilida transformatsiyaga uchraydi. Shu bilan birga, til meyorlariga muvofiq, soʻz tartibi, jumla tarkibi, semantik xususiyatlarning soni va turi kabi shakliy xususiyatlar oʻzgaradi.

Transformatsion-semantik modelning ahamiyatli qirralari bor. Tarjima jarayonida bosib oʻtilgan koʻplab yoʻllarni bevosita kuzatish mumkin emas. Ushbu model manba tili mazmunidagi til birliklari oʻrnini bosish uchun tarjima tili birliklarini oʻziga (har doim boʻlmasada) boʻysundiradi. Shunday qilib, ekvivaletlikka erishish usullari modellashtirilib, unda asl matnning sintaktik strukturasi va leksik birliklarining asosiy maʼnosi saqlanib qolinadi. Evfemik va disfemik xususiyatli birliklar uchun esa bu modelning uchinchi bosqichi dastlabki bosqichlaridan farqli oʻlaroq keng imkoniyat eshigini ochadi. Tarjimon u yoki bu semani asl nusxadagi soʻz maʼnosida qanday qilib aniqroq yetkazish kerakligi haqida bosh qotiradi: intuitiv ravishda oʻz dunyoqarashi tarozisida oʻlchab, koʻngildan chiqqan kechinmalar bilan qorishtirgan holda tarjimini amalga oshiradi. Zero, nutqiy, paradigmatic vaziyatni idrok etish katta mahorat talab etadi. Masalan, yuqorida tahlil qilganimizdek bir-birining oʻrnini bosadigan semalar bir-biriga toʻgʻri kelmasligi mumkin, u ekvivalentlikning semantik perefrash<sup>6</sup> bilan bogʻliq (masalan, *She was preseded by her father.* (Undan oldin otasi bor edi.) – Она вошла вслед за своим отцом. (U otasining orqasidan kirib keldi.) muammolarni keltirib chiqaradi: – *Kuling-e, kuling! Xudo oʻlim bersin kulgiga! – dedi Oʻzbek oyim va achchigʻi bilan yuzini chetka oʻgirdi. // – Смейтесь, смейтесь! Грех вам издеваться надо мной! – рассердилась Узбек-аим и в сердцах отвернулась.*

Maʼlumki oʻlim bilan bogʻliq tushunchalar disfemik kayfiyat uygʻotib, har

<sup>5</sup> (inglizcha *реструктуризация*) – strukturani oʻzgartirish

<sup>6</sup> Xuddi shu fikrni, ammo boshqacha aytish.

qanday tilda ham u bilan bog‘liq evfemizatsiya mavjud. O‘zbek tilida esa nutqiy madaniyati, o‘zbek tilining mental xususiyati, qolaversa qochirim, piching, kinoyaga boy o‘zbek xarakteri nuqtai nazaridan o‘lim bilan bog‘liq 300 ga yaqin evfemik varianti topilganligi ahamiyatli.<sup>7</sup> Bu esa ularning turli vaziyat, matn va zamonda qo‘llanilishga xoslangan turidan foydalana olish imkonini beradi, shuningdek, nutqning sayqallanishiga olib keladi.

Ayrim tillarda esa o‘lim tushunchasi tabu darajasida bo‘lib, uning o‘zini qo‘llash ham disfemizm sifatida qaraladi. Ammo O‘zbek oyim singari “og‘zi botir” insonlar uchun «keskin va qo‘pol ifoda»larni qo‘llash hayot me‘yoriga aylangan. Tarjimon lingvokulturologik aspektlarni ko‘zdan qochirmasdan, jumlani butunlay o‘zgartirish bilan umumiy mazmuni buzmaganda, ahamiyatsiz jumlani o‘rniga ahamiyatsiz jumlani kiritadi. Umumlisoniy qonuniyatlarga zid kelmagan bu o‘zgarish qahramon qalbidan chiqayotgan sadoni tarjima tilida to‘laligicha yetkaza olgan. O‘zbek tilidagi qarg‘ish, rus tilida tahdidga aylangan, ya‘ni disfemik vaziyat har ikki tilda ham saqlangan, faqat boshqacha ifoda etilgan.

Bunday perefrashlash, shuningdek, ba‘zi bir semantik belgilarni qo‘shish yoki tushurib qoldirish bilan birga bo‘lishi ham mumkin: – *Узнаю коней ретивых по какому-то их таврам\**, *юношей влюбленных узнаю по их глазам*, – *продекламировал Степан Аркадьич. – У тебя все впереди*. Yozuvchi qahramon xarakteridagi sayozlikka ishora qilish uchun qayerdadir eshitgan va yoki o‘qigan jumlasini go‘yoki esidan chiqarib qo‘ygandek tasvirlaydida, aslida qanday bo‘lishi kerakligini havola qiladi. \* *Узнаю ретивых коней по какому-то их таврам... – У Пушкина («Анакреон»): «Узнаю коней ретивых по их выжженным таврам...»*. Tarjimada esa bu izoh tushib qoladi, ammo asliyatning obraz xarakteridagi nuqson boshqacha ifodalanadi: – *Otning o‘ynoqisini tamg‘asidan, yigitning oshig‘ini esa ko‘zginasidan bilib olaman, deb deklamatsiya qildi Stepan Arkadich. – Kelajaging hali oldinda*. Tarjimon ko‘zginasidan birligidagi *-gina* qo‘shimchasini qo‘shish orqali obrazlilikni saqlash uchun tortinmay suqib qo‘yadi hamda ruscha ijobiy ma‘nodagi birlik (*ретивый*)ni o‘zbekcha salbiy bo‘yoqli (*o‘ynoqi*) birligi bilan almashtirib, o‘zbek tiliga xos pragmatik muhitni, ya‘ni o‘zbekona nutq vaziyatini yaratadi. Uning manba tilida lingvokulturologik jihatdan faqat ijobiy semalardan iborat ekanligi inobatga olinmagandir, ehtimol (**ретивый, -ая -ое разг. серг‘айрат, serharakat, astoydil, jonboz, tirishqoq, jonkuyar; ретивый, работник jonkuyar (tirishqoq) xodim; jo‘shqin, otashin (yurak haqida)**).<sup>8</sup>). Shunday bo‘lsada, kommunikatorlarning ikki xil – asl va tarjima tilida bir biriga yaqin qiyofasi paydo bo‘lib, har bir til

<sup>7</sup> Омонтурдиев А. Бир сўз луғати. – Термиз: Жайхун, 1996. – Б. 45.

<sup>8</sup> <http://www.translatos.com/uz/uz-ru/>

o'quvchisi uchun bir biriga yaqin tasavvur shakllanishiga olib kelgan. Sababi qahramon (Stiva) manba tilida ham o'yin-kulgini yaxshi ko'radigan, chiroyli ayollarga nisbatan suyagi yo'q odam bo'lib, bu uning hayot mazmuni, qanotli iboralarni eslab qolish uning uchun o'ninchi o'rinda turadi, shuning uchun u o'zini Pushkinning iborasini balki kinoya qilib atayin esidan chiqarib qo'ygan qilib ko'rsatayotgandir. Ana shu xarakter o'zbekcha talqinda ham o'ynoqilikni yaxshi tushunadigan, bu masalada ustasi farang bo'lib ketgan odam sifatida gavdalanadi. Otga nisbatan bu sifat yuklanib, manba tilidagi ijobiy semali leksika o'z izini yo'qotadi. Natijada umumiy ko'rinish saqlanib qolinadi.

Shunisi ahamiyatliki, transformatsion-semantik model universal emasligi va istalgan tarjima ishiga to'g'ri kelishi munozaralidir. U asl nusxa va tarjimaning sintaktik strukturasi va leksik birliklar ma'nosi o'rtasida transformatsiya munosabati va ikki matnning ekvivalentligi bo'lmagan holatdan tashqari faqat tavsiflanayotgan vaziyatning umumiylikiga asoslanadi. Nutqiy vaziyat esa xususiylik bilan belgilanadi. Demak, u aksariyat figural bo'lmagan birliklar bilan ish olib borilganda asqatadi, degan xulosaga kelish mumkin. Masalan, Inglizcha *Answer the telephone* (Telefonga javob bering) jumlasini ruscha *Возьми трубку* (Go'shakni ko'taring) iborasiga teng, chunki *to answer* (javob berish) va *взять* (ko'tarish) fe'llari umumiy semalarga ega, demakki, aslida telefon qo'ng'irog'ida javob berish, ya'ni go'shakni ko'tarish kerak, bu degani ikki fikrda ham "bir xil" ma'no yotadi, ammo bir vaziyatning ikki tomoni istifoda etiladi.

Tarjimaning transformatsion-semantik modeli manba tili kommunikatsiyasi maqsadini tarjima tilida amalga oshirish, mental vaziyatni o'girma tilga almashtirish, natijada asliyat bilan bog'liq obrazli va boshqa assotsiatsiyalarni tarjima tilida yetkazish zarurati paydo bo'lganda ham qo'llanilmaydi. Boshqacha aytganda, tarjimaga izoh berish bilan transformatsion-semantik model o'z ahamiyatini yo'qotadi, ya'ni u bu vazifani o'z zimmasiga olmaydi: *Никто и слушать меня не хотел, а если и находился кто нибуть, то тут же ввергал меня в уныние: "Разве станет тебя слушать хан, а беки – исполнять подобные приказы?" В начале я не хотел прислушиваться к этим словам, однако позднее осознал их правоту. В самом деле, разве на кладбище кто-либо услышит призыв "Хаййя алал-фалах"\**? Tasvirlanayotgan vaziyat o'z holicha muhim emas, ammo bu atama diniy nuqtai nazardan dunyoga kelgan chaqaloq birinchi bo'lib eshitishi kerak bo'lgan, uning shu orqali qalb pardalari ochilib, butun hayoti davomida to o'lgunicha iymon nurining singishi bilan bog'liq tushunchadir. Uni eshita olgan odam, o'zgalarning dardiga quloq tutadigan, o'z ongida idrok eta oladigan odamdir. Eshita olmagan esa qabristonda yangragan azonni eshitmaydigan o'lik singaridir. Islom



dinidagi bu muhim tushuncha tili boshqayu, dini mos odamgagina tushunarli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun uni yo kengaytirgan holda yoki izoh bergan holda tarjima tiliga o‘g‘irish mumkin. Biroq yashirin evfemik qobiq ochilar ekan, uning evfemikligidan asar qolmaydi: *Bu yerda so‘zimni eshitkuchi birov ham bo‘lmadi, bo‘lsalar ham: “Sening orzungni shu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?” deb meni mayus qildilar. Ilgariroq men ularning gapiga bovar qilmay yursam, so‘ngg‘idan to‘g‘ri so‘zni aytkanlarini bildim. Darhaqiqat, mozoristonda “Hayya alalfalah” xitobini kim ham eshitar edi.* Tarjimada manba tilida nazarda tutilgan ma‘noni tushunish imkonini beruvchi izoh beriladi: \* *Хаййя алал фалах – “спешите спастись и торопитесь к избавлению” (призыв на молитву)*

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarjimon asliyat va tarjima mazmunlarining umumiy jihatlarini lisoniy birliklari semantikasining mikrokomponentlari, ya‘ni semalari darajasida o‘g‘irishga harakat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Semalarning umumiyliigi bu – asliyatdagi va tarjimadagi semalar tarkibi maksimal darajada mos kelishidir. (*I saw him yesterday – Men uni kecha ko‘rdim – Я видел его вчера*). Tillararo munosabatni amalga oshirish uchun semantik xususiyatlarning, hech bo‘lmaganda, bir qismi yetarli bo‘lgan hollarda ham tarjima ekvivalenti asosini tashkil etadi. Asl nusxada mavjud bo‘lgan hamma semalar ham muayyan munosabat akti uchun kommunikativ jihatdan muvofiq emas. Tarjimonning vazifasi, avvalambor, kommunikativ jihatdan muvofiq semalarni saqlab qolishdir. Asliyat va tarjimaning semali tarkibini solishtirish natijasida, tarjima jarayonida aynan bo‘lgan semalarni ishga tushirishdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Кадыри А. Минувшие дни. – Т.: изд-во «Шарк», 2009. – 430 с.
2. Кадинова, Х. О‘zbek ismlarida evfemizatsiya va uning disfemizatsiyalashuviga oid muammolar // ORIENSS. 2022. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-ismlarida-evfemizatsiya-va-uning-disfemizatsiyalashuviga-oid-muammolar>
3. Бейсенова, А., & Хуршид, Х. (2022). “Zamonamiz qahramoni” asarida qo‘llangan frazeologizmlarning badiiy tarjimada aks etishi (o‘zbek va rus tillari misolida). *Uzbekistan Language and Culture*, 5(1). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/4>
4. Кадинова Х. Б. Классификация по структуре формы эвфемизмов в произведениях Абдуллы Кадири // Вестник науки и образования. 2020. №8-1 (86). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/klassifikatsiya-po-strukture-formy-evfemizmov-v-proizvedeniyah-abdully-kadiri>

5. Кадирова Х.Б. Эвфемико-дисфемистические значения в пересечении структурно-прагматического анализа [Euphemic-dysphemistic values in the intersection of structural-pragmatic analysis] // XVI international scientific review of the problems of philosophy, psychology and pedagogy: Boston, USA - 29 January, 2020). [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://scientific-conference.com/grafik/grafik2019-pervoe-polugodie.html/>
6. Омонтурдиев А. Бир сўз лугати. – Термиз: Жайхун, 1996. – Б. 45.
7. Толстой Л. Анна Каренина (Мирзакалон Исмоилий таржимаси). – Тошкент, Гофур Гулом. 1980. – Б. 82
8. Толстой Л. Анна Каренина. «Эксмо», 1878 — (Библиотека всемирной литературы). С. 64. – 165 с.